

**AYOL VA QIZLARDA TURMUSH QURISHDAN  
AVVALGI QO'RQUVLAR PSIXOLOGIYASI**

**Akilov Faridun Firdavsovich**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Psixologiya va ijtimoiy - siyosiy fanlar fakulteti*

*"Amaliy Psixologiya" kafedrasи assistenti*

**Ochilova Sevinch**

*Samarqand davlat universiteti amaliy psixologiya*

*fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ayol va qizlarda turmush qurishdan avvalgi qo'rquvlarni o'rganish va mamlakatimizda sog'lom oila qurilishi uchun olib borilayotgan chora tadbirlar o'z aksini topgan .

**Kalit so'zlar :** psixologiya , ijtimoiy, siyosiy ,ruhiyat , jamiyat ,oila

**Abstract:** This article reflects the study of fears of women and girls before marriage and the measures taken to build a healthy family in our country.

**Keywords:** psychology, social, political, spirituality, society, family

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyatimizni rivojlantirish, bunda erkaklar bilan bir qatorda qiz va ayollarimizning faol siyosiy-ijtimoiy pozitsiyasini ta'minlash, shuningdek, jamiyatning asosiyligi bo'g'ini hisoblangan oilalarni mustahkamlashga qaratilmoqda. Mazkur jarayonda qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga maqsadli tayyorlash, ularning ijtimoiylashuvini natijador qilish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

An'anaviy tarzda oilada farzand tarbiyasining asosiy mas'uliyati onalarning zimmasidadir. Binobarin, jamiyatdagi ma'naviy sog'lomlik bo'lg'usi onalar, jumladan, qizlarning tarbiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli Qarori muhim ahamiyatga egadir. Turmushga chiqmagan qizlarni oilaviy hayotga, turmushga, kelinlikka, jamiyatga tayyorlash masalasiga xalqimiz qadim-qadimdan muhim masala sifatida qarab kelgan. Turmushga chiqmagan qizlar oilaviy hayotning ma'naviy, axloqiy, iqtisodiy xususiyatlari, oilani rivojlantirish, oilada tinchlik va totuvlikni saqlash, oilada farzand tarbiyasini amalga oshirish ishlariga tayyor bo'lishlari zarur. Shuningdek, bo'lajak kelin va kuyovlarni baxtiyor oila, oilaviy hayot, turmush, ro'zg'or tutish, oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarda "muvaqqafiyat kaliti"ga erishish mahoratiga o'rgatish jamiyatimizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qator oilaviy muammolar, manfaatlar to'qnashuvi, kelishmovchiliklar, ajrimlarning oldini olishda muhim.

Ushbu "Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash" o'quv kursi dasturi turmush qurmagan qizlarimizning oila va jamiyatga barobar muvaffaqiyatli ijtimoiylashishiga oid bilim, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kursda qizlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli, oilaning huquq asoslari, oila

byudjeti va iqtisodini shakllantirish hamda rivojlantirish kiyinish, ma'naviy madaniyati, oilaviy hayot asoslari, oila psixologiyasi, pedagogikasi, gigiyenasi hamda reproduktiv salomatlikka doir ilmiy-nazariy va amaliy ma'lumotlar jamlangan.

Vatanimizda kuchli ijtimoiy institutlar hisoblangan mahalla va oila tizimi orqali qizlarni davlat va jamiyat hayotida faollashtirish, ularning samarali ijtimoiylashuvini ta'minlash, turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaviy hayotga, jamiyatga tayyorlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy faolligini oshirish davlatimizda olib borilayotgan siyosiy islohotlarda o'zaksini topmoqda.

Oilada qiz bolaga e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, qiz bolabo'lajak ona, yor, opa va singildir. Oilada tinchlik-totuvlik, saramjon-sarishtalik, ozodalik, farzandlar tarbiyasi, hattoki, sog'lom muhit ham xotin-qizlar, demakki, buvijonlarimiz, onalarimiz, singillarimiz, kelinlarimiz zimmasigatushadi. Har bir ota-onan o'z bolasiga sog'lom tarbiya berib voyaga yetkazsa, farzandning mustaqil hayotga toza ruh, olam-olam orzu-intilishlari bilan qadamqo'yayotganini ko'rsa, uning hayoti ma'no kasb eta boshlaydi. Farzandlarnito'g'ri tarbiyalash, ayniqsa jismoni, ma'naviy fazilatlarni ularda tarbiya qilishdoimo ota-onaning asosiy maqsadi bo'lib kelgan.

2019-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, "Xotin-qizlar va erkaklaruchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari qabulqilindi. Mazkur hujjatlar xotin-qizlar va sog'lom oilani muhofaza qilishga qaratilgandir.

Har bir xonadonda qiz bola farzand dunyoga kelsa, beshikdan to balog'atyoshiga yetguncha uni to'g'ri tarbiyalash, oilaga yo'naltirish, oila va kareramaqsadlarini uzviy bog'lash, har bir ota-onaning fikrini "qiz bola – boshqa xonadonning fayzi", - degan xayol uning voyaga yetgunicha va shunihgdek, turmushga bergunga qadar tark etmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda turmushga chiqayotgan yosh qizlarning zimmasiga katta ma'suliyat yuklatiladi.

Ushbu ma'suliatlardan biri bu ma'naviy boylik, saramjon-sarishtalik, faxm-farosat va albatta gigiyenik jihatdan ozodalikdir. Xalqimizda ushbu fazilatlar "har bir qiz bolada mujassam bo'lishi kerak", - degan fikr yuradi. Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy tamoyillar asosida qizlarni oilaviy hayotga, jamiyatga tayyorlash dolzarb masaladir.

Oilaviy hayotga tayyorlash masalalari inson omili bilan bog'liq bo'lib, qizlarning ma'naviy, ruhiy, gigiyenik va uy tutishlik, tarbiyachi bo'lishlik vazifalari majmuidan iboratdir. Shu bilan birga, muloqot qoidalari, oilada e'tiqod, burch, adolatparvarlik mezonlari, shukr, sabr va qanoat, sadoqat va vafo, kamtarlik kabi axloqiy-ma'naviy xususiyatlarni o'z mazmuniga qamrab oladi.

Mana shu maqsad va vazifalarlardan kelib chiqqan holda "Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturi yaratildi.

"Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash" yo'nalishi o'quv kursining maqsadi – turmushga chiqmagan qizlarni oilaviy va ijtimoiy hayotga psixologik-pedagogik moslashuviga ko'maklashish, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashishga, o'z o'rniga ega bo'lishlariga tayyorlash, ularda ilmga intilish motivatsiyasini hosil qilish, oilaviy hayot asoslari, oila psixologiyasi, iqtisodi, ma'naviyati, oila gigiyenasi, reproduktiv salomatlik, kiyinish madaniyati va odobi

ro‘zg‘orshunoslik asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish va rivojlantirish, barcha sohalarda turg‘un ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

“Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash” yo‘nalishi kursining vazifalari:

- O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining mazmun va mohiyatini ular ongiga singdirish;
- turmushga chiqmagan qizlarning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda va ijtimoiy zaruriyat asosida ular ongiga oilaviy turmush asoslarini singdirish;
- respublikamiz tuman va shaharlarida “Oila – muqaddas”, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat”, “Oila – jamiyat va davlat himoyasida” va “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyalari asosida nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo‘yicha tizimli tayyorlash maqsadida ”Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari” tashkil etish orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- oilada turmush asoslari va jamiyat hayotiga integratsiyasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni maqsadli shakllantirishdan iboratdir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Vasila Karimova “Psixologiya”, [Toshkent](#), 2000.
2. Foziev E. “Umumiy psixologiya” 1-kitob, Toshkent, 2004
3. “Psixologiya atlasi” M.Gomezo tahririda Moskva 1986
4. M.G.Davletshin. “Psixologiya”, Izohli lug`ati, Toshkent 1998
5. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
6. Foziev E. «Umumiy psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.
7. A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 1992.
8. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovaniya v dvux tomax. M., 1992.
9. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o`qituvchisi psixologiyasi. T., 1997.
10. Foziev E. Psixologiya. T., 1994.